



Ultimately, the use of technology not only enhances the quality of education but also promotes equity, accessibility, and social justice. By embracing these innovations, educational institutions can build more inclusive, adaptive, and empowering learning environments that prepare all students for success in an increasingly digital world.

References

1. Navas-Bonilla, C. del R., Guerra-Arango, J. A., Oviedo-Guado, D. A., & Murillo-Noriega, D. E. (2025). Inclusive education through technology: a systematic review of types, tools and characteristics. *Frontiers in Education*, 10. <https://doi.org/10.3389/feduc.2025.1527851>
2. Allayorov, A. I., & Kisilkova, E. (2024). Digital technologies in inclusive education: Enhancing accessibility and engagement. *Modern Problems in Education and Their Scientific Solutions*.
3. Yang, S. (2025). The role of AI in achieving inclusive education. *Communications in Humanities Research*, Vol. 64. <https://doi.org/10.54254/2753-7064/2024.19654>.
4. European Agency for Special Needs and Inclusive Education. (2013). Information and Communication Technology for Inclusion – Research Literature Review. Retrieved from <https://www.european-agency.org/resources/publications/information-and-communication-technology-inclusion-research-literature>
5. Kane, S., Metatla, O., Branham, S., Serrano, M., Jouffrais, C., & Thieme, A. (2018). Inclusive Education Technologies: Emerging Opportunities for People with Visual Impairments. CHI’18 Extended Abstracts. <https://doi.org/10.1145/3170427.3170633>
6. “Technologies in Inclusive Education: Solution or Challenge? A Systematic Review.” (2025). *Education Sciences*, 2227-7102
7. “Reading and Writing Development in Inclusive Settings: Teachers’ Perception of the Use of Digital Technology.” (2025). *Behavioral Sciences*, 15(5), 682. <https://doi.org/10.3390/bs15050682>

ZAMONAVIY O‘ZBEK TILIDA YANGI SO‘ZLARNING PAYDO BO‘LISH TENDENSIYASI

Tursunova Odina Abdukodir qizi
Davlataliyeva Sevinch Adhamjon qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti talabalari.
Ochilova Xursanoy Maxmud qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Turizm kafedrasida dotsent v.b
Email: ochilovaxursanoy26@gmail.com

Annotatsiya : ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek tiliga yangi so‘zlarning kirib kelishi, ularning shakllanish omillari va asosiy tendensiyalari ko‘rib chiqiladi. Texnologik taraqqiyot, ommalashuv, internet tili va yosh avlod nutqidagi o‘zgarishlarning o‘zbek tili leksikologiyasiga ta’siri ortadi. Shuningdek, yangi so‘z yaratishning asosiy usullari - so‘z yasovchi qo‘shimchalar, qisqartmalar va ma’no kengayishi bilan vujudga keladigan jarayonlari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, yangi so‘zlar, neologizm, tendensiya, ommalashuv, internet tili, so‘z yasash, o‘zlashma, til taraqqiyoti, leksika.

ТЕНДЕНЦИИ ПОЯВЛЕНИЯ НОВЫХ СЛОВ В СОВРЕМЕННОМ УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Турсунова Одина Абдукодир кизи
Давлаталиева Севинч Адхамжон кизи
Чирчикского государственного педагогического университета, студентки
Очилова Хурсаной Махмуд кизи
доцент, Чирчикского государственного педагогического университета
Email: ochilovaxursanoy26@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматривается появление новых слов в современном узбекском языке, факторы, влияющие на их формирование, и основные тенденции, наблюдаемые в этом процессе. Отмечается возрастающее влияние технологического прогресса, массовой культуры, интернет-языка и изменений в речи молодого поколения на лексикологию узбекского языка. Кроме



того, в статье выделяются основные способы словообразования — использование словообразовательных аффиксов, аббревиатур и процессов, возникающих в результате семантического расширения.

Ключевые слова: узбекский язык, новые слова, неологизм, тенденция, популяризация, язык интернета, словообразование, заимствование, развитие языка, лексика.

TENDECIES OF THE EMERGENCE OF THE NEW WORDS IN THE MODERN UZBEK LANGUAGE

Tursunova Odina Abduqodir qizi
Davlataliyeva Sevinch Adkhamjon qizi
Students, Chirchik State Pedagogical University
Ochilova Xursanoy Makxmud qizi
Associate Professor, Chirchik State Pedagogical University
Email : ochilovaxursanoy26@gmail.com

Kirish. Til — xalqning madaniyati, tafakkuri va ijtimoiy hayotining eng muhim ko‘zgusidir. Jamiyatda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, yangiliklar, texnologik taraqqiyot va madaniy aloqalarning kengayishi natijasida til doimo rivojlanib, yangilanib boradi. Shu jarayonda yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi tabiiy hodisa hisoblanadi. Bugungi kunda o‘zbek tilida ham yangi leksik birliklar, ya’ni neologizmlar faol tarzda shakllanmoqda. Zamonaviy o‘zbek tilida neologizmlar tobora ko‘payib bormoqda. Ular nafaqat ilmiy-texnik atamalar shaklida, balki siyosat, iqtisodiyot, madaniyat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sport, moda va boshqa turli sohalarda ham keng qo‘llanilmoqda. Zamonaviy o‘zbek tilida vujudga kelayotgan yangi so‘zlarni aniqlash, ularning hosil bo‘lish manbai va shakllanish mexanizimini o‘rganish, shuningdek ularning adabiy tilga qanday moslashayotganini tahlil qilish bugungi tilshunoslik fanining dolzarb vazifalaridan biridir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — zamonaviy o‘zbek tilida yangi so‘zlarning hosil bo‘lish jarayonini, ularning shakllanish manbalari, leksik-semantik xususiyatlari hamda qo‘llanish sohalari aniqlashdir. Shuningdek, globallashuv, texnologik taraqqiyot va ommaviy axborot vositalarining til leksik tizimiga ta’sirini o‘rganish ham tadqiqotning muhim vazifalaridan biridir. Mazkur ilmiy ishda quyidagi metodlardan foydalanilgan:

- Tavsifiy (deskriptiv) metod: yangi so‘zlarning leksik-semantik tahlilini, ularning ma’no o‘zgarishlarini aniqlash uchun.
- Qiyosiy-tipologik metod: o‘zbek tilidagi neologizmlarni ingliz, rus yoki turk tillaridagi shunga o‘xshash birliklar bilan solishtirish uchun.
- Etimologik metod: yangi so‘zlarning kelib chiqishini, ularning manbalarini aniqlashda.
- Statistik metod: matbuot, ijtimoiy tarmoqlar va internet materiallarida uchraydigan yangi so‘zlar soni va tezligini hisoblashda.
- Korpus tahlili metodi: “O‘zbek tilining milliy korpusi” hamda internetdagi til resurslarida uchraydigan neologizmlarni o‘rganishda.
- Kontent tahlil metodi: ommaviy axborot vositalaridagi matnlarda yangi so‘zlarning qo‘llanish kontekstini aniqlashda.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy o‘zbek tilida so‘nggi yillarda yuz bergan texnologik, siyosiy va madaniy o‘zgarishlar natijasida ko‘plab yangi so‘zlar tilga kirib keldi. Ularning manbalari asosan quyidagi guruhlariga bo‘linadi:

- Chet tillaridan o‘zlashgan so‘zlar — ayniqsa ingliz tilidan kirgan neologizmlar: blogger, stream, chat, online, trend, repost, content, freelance, startup kabi birliklar keng qo‘llanilmoqda. Bular texnologiya, internet va media sohalarida faol ishlatiladi.
- So‘z yasash yo‘li bilan hosil bo‘lgan yangi birliklar — o‘zbek tilining ichki imkoniyatlari orqali yaratilgan: dasturchi, kontentchi, tarmoqchi, blog yurituvchi, ilovachi kabi birliklar milliy so‘z yasash modellarga asoslangan.
- Qisqartmalar va abbreviaturalar asosida hosil bo‘lgan yangi so‘zlar: DTM, OTM, IT Park, BMT, OAV kabi qisqartmalar o‘zbek tilida alohida leksik birlik sifatida mustahkamlanmoqda.
- Ma’no kengayishi orqali vujudga kelgan neologizmlar: layk, storilar, trendga chiqmoq kabi iboralar yangi semantik mazmun kasb etib, maishiy nutqqa kirib kelgan.



- Internet tarmog‘i va ijtimoiy media tili orqali kirgan birliklar: yoshlar orasida dmga yozmoq, post tashlamoq, follow qilmoq kabi hibrid (aralash tilli) ifodalar ko‘paygan.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi: zamonaviy o‘zbek tilida yangi so‘zlar paydo bo‘lishi tabiiy va doimiy jarayondir, bu tilning yashovchanligi, moslashuvchanligi va rivojlanayotgan kommunikativ ehtiyojlarga javob bera olish salohiyatidan dalolat beradi. Yangi so‘zlarning aksariyati xorijiy tillardan, ayniqsa ingliz tilidan o‘zlashtirilmoqda, bu esa global madaniyatning ta’siri kuchli ekanligini ko‘rsatadi. Neologizmlar ko‘pincha ijtimoiy tarmoqlar va internet tili orqali keng tarqalmoqda, bu esa ularning ommalashuv tezligini oshiradi, lekin adabiy til me’yorlariga zid holatlar ham uchramoqda. Tilshunoslikda yangi so‘zlarni tizimlashtirish, ularning ma’no va shakllarini tahlil qilish lug‘aviy jihatdan normallashtirish bo‘yicha izchil ish olib borilishi zarur.

Mavzuga oid adabiyotlar:

1. Ergashev T. T. — Localization of Neologisms in the Uzbek Language (Adoption and National Characteristics of Neologisms in the Technological Field).
Neologizmlarning inglizcha manbalardan kirishi va texnologik sohadagi moslashuvi, leksik integratsiya tahlili.
2. Jo‘raev N. — Zamonaviy o‘zbek tili va yangi leksik birliklar (maqola/kitob, 2024–2025 atrofida nashrlar mavjud).
Internet va ijtimoiy tarmoqlar tilga ta’sirini, yangi leksikaning funksional jihatlarini tahlil qiladi.
3. New words and neologisms in the Uzbek language — (inlibrary / 2025).
Yangi so‘zlar paydo bo‘lishi sabablari: globallashuv, texnologiya, ijtimoiy-media; semantik va funksional tahlil.
4. Qilichev, E. — O‘zbek tilining praktik stilistikasi (kitob).
Neologizmlarning stilistik jihatlar, qisqartmalar va abbreviation-neologizmlar haqida tarixiy va amaliy misollar.
5. The Concept of Neologism and its Linguistic Significance — maqola (American Journal / universitet nashri; 2024–2025).
Neologizm tushunchasi, paydo bo‘lish mexanizmlari, namunalarda “blogger”, “vlog”, “freelancer” kabi kirib kelgan so‘zlar tahlili.
6. English neologisms in the Uzbek language: linguistic ... — (BestPublication, 2024).
Inglizcha neologizmlarning o‘zbek tiliga moslashuvi: fonetik, morfologik va semantik adaptatsiya misollari.
7. Methods of Formation of Neologisms in the Uzbek Language — (RMASAV OJS, 2023).
So‘z yasash usullari: affiksatsiya, birikmalar, qisqartmalar, semantik kengayish va boshqa mexanizmlar. Amaliy misollar.
8. Nurmatov, H. (2020). “Yangi so‘zlar : muammo va yechimlar ”
Maqolada yangi so‘zlarning paydo bo‘lishida yuzaga kelayotgan muammolar, ular til me’yorlariga qanday ta’sir qilishi, tilni muhofaza qilish va rivojlantirish yo‘llari muhokama qilinadi.

MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANISH HOLATI TAHLILI VA UNING MINTAQA SAVDO KORXONALARINING JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDAGI O‘RNI

Otaxonova Dinora Musaboy qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Iqtisodiyot kafedrasida o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

E-mail: dinora_o@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada marketing strategiyasidan foydalanish holati tahlili amalga oshirilgan va uning mintaq savdo korxonalarining jozibadorligini oshirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, marketing strategiyasidan foydalanish holati tahlilini amalga oshirish yuzasidan xulosa va takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Savdo, savdo korxonasi, marketing, marketing strategiyasi, mintaq, tahlil.

**АНАЛИЗ ПРИМЕНЕНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ И ИХ РОЛИ В
ПОВЫШЕНИИ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ РЕГИОНАЛЬНЫХ ТОРГОВЫХ
ПРЕДПРИЯТИЙ**